



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-sentabr

444-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer maydonlarini yangidan o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligida qayta foydalanishga kiritishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda mazkur tadbirlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 19-avgustdagi 515-son qarori ijrosi haqida”gi 407-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ 2024-yil 5-apreldagi PQ-153-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, yer maydonlarini yangidan o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligida qayta foydalanishga kiritish orqali sohada yoshlar ishtirokini yanada oshirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer maydonlarini yangidan o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligida qayta foydalanishga kiritishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda mazkur tadbirlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 19-avgustdagi 515-son qarori ijrosi haqida”gi 407-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-avgustdagi 515-sonli qarori bilan:

Yer maydonlarini yangidan o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligida qayta foydalanishga kiritishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda mazkur tadbirlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-apreldagi PQ-153-son qarorida nazarda tutilgan manbalar hisobidan ajratiladigan mablag‘lar tuman (Quvasoy shahar) hokimliklari zaxirasidagi yer maydonlarini o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligida qayta foydalanishga kiritish tadbirlarini amalga oshirishda:

vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ilash va nasos agregatlarini o‘rnatish hamda ishga tushirish; daryolar, kanallar va boshqa suv obyektlaridan suv chiqarish uchun zarur vositalarni sotib olishi va o‘rnatish;

sugʻorish (kanal, lotok) va kollektor tarmoqlarini qurishi hamda rekonstruksiya qilish; yangidan oʻzlashtiriladigan va qishloq xoʻjaligida qayta foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarini lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregatlari bilan tekislash maqsadlari uchun yoʻnaltirilishi;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-avgustdagi 515-son qarori talablari faqatgina davlat resurslari va grant mablagʻlari hisobidan pudrat tashkilotlari tomonidan tuman (Quvasoy shahar) hokimligi zaxirasidagi yerlarning yangidan oʻzlashtirilgan va qishloq xoʻjaligida qayta foydalanishga kiritilgan maydonlariga nisbatan qoʻllanilishi;

Qishloq xoʻjaligi subyektlari tomonidan oʻz yerida yoki oʻz hisobidagi tutash hududlarda yangi yerlar oʻzlashtirilgan yoki qishloq xoʻjaligida qayta foydalanishga kiritilgan hollarda ularga davlat resurslari va grant mablagʻlari hisobidan pudrat tashkilotlarini jalb etish taqiqlanishi;

Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xoʻjaligida foydalanilmayotgan yerlarni foydalanishga kiritishda irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan bogʻliq xarajatlarni qoplab berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 24-fevraldagi 109-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi;

Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari oʻz kuchini yoʻqotgan deb topilganligi maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi (A.Xakimov), Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Z.Jurabayev), “Suv etkazib berish xizmati” DM (M.Ortiqov), Davlat Kadastrlar palatasi tuman boʻlimi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-avgustdagi 515-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov